

ALISHER NAVOIY “XAMSA” SINING TOSHBOSMA NASHRLARI

Aripova Ozoda TDSHI Manbashunoslik -2-kurs

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarining toshbosma nashrlari haqida soʻz boradi. Xususan “Xamsa”ning TDSHI Sharq qoʻlyozmalari fondida saqlanayotgan toshbosma nusxalari maqolada yoritilgan.

Oʻzbek adabiyoti va madaniyatining bebaho durdonalaridan boʻlgan qoʻlyozma asarlar, shu jumladan, Alisher Navoiy merosi uzoq asrlar davomida faqat hattot va kotiblar tomonidan zoʻr chidam bilan koʻchirilib, avlodan-avlodga yetkazilgan boʻlsa, XIX asrda Oʻrta Osiyoda kitob bosish- toshbosmaning paydo boʻlishi tufayli bu asarlar koʻp nusxada nashr etila boshlandi

Ulugʻ shoir Alisher Navoiyning asarlar davomida qoʻlyozma holida va soʻnggi davrlarda bosma yoʻl bilan eng koʻp tarqalgan asari, shubhasiz, uning besh mustaqil va katta dostonlarini oʻz ichiga olgan “Xamsa” idir.

“Xamsa” asari butunisicha 25615 baytdan tashkil topgan. Shunday ulkan asarni shoir ikki yil (1483-1484) mobaynida ijod hazinasidan ommaga taqdim etgan.

Alisher Navoiy asarni yozib tugatmasidanoq, dastlab Hirotning atoqli hattotlaridan Abduljamil kotib nusxa koʻchirishga kirishib, shoir bilan ketma-ket bu ishni tugallab. XV asr xattotlarining ajoyib namunasi boʻlgan va shoirning oʻz avtografiga eng yaqin turgan mashhur qimmatbaho qoʻlyozmani maydonga keltirdi¹. Shundan keyin Sultonali Mashhadiy² kabi sanʼatkor kotiblar va boshqa qalam ahllari³ nusxalar koʻchirishni davom ettirib, “Xamsa”ni turli oʻlkalarga tarqatish ishida zoʻr xizmat koʻrsatdilar. Shunday qilib, Navoiyning bu ulugʻ asari XIX asrning ikkinchi yarmigacha faqatgina nusxa koʻchiruvchi kotiblarning zoʻr chidam va sabotlari natijasida maydonga kelgan yakka-yakka qoʻlyozma nusxalar orqaligina turli shahar va mamalakatlariga tarqalib, qoʻldan-qoʻlga oʻtib keldi.

XIX asr oxirlarida Oʻrta Osiyoda bosmaxonalar paydo boʻla boshlagach, bu asar birinchi marta Xiva shahrida⁴ toshbosmada nashr etildi. Shundan keyin Toshkent shahrida ketma-ket ikki bor bosilib chiqdi⁵.

Alisher Navoiyning ulugʻ oʻzbek shoiri va mutafakkiri sifatida butun dunyoga tanilishi, uning oʻlmas asarini ilmiy asosda keng oʻrganilishi, koʻplab va chiroyli qilib nashr etilishi XX asrda avj olib ketdi. Ayniqsa, shoirning “Xamsa” asaridagi dostonlari bir necha marotaba nashr etildi, juda koʻp tillarga tarjima qilinib, katta tirajlarda bosib tarqatildi. Bu ishlar ayniqsa 1938 yildan boshlab qizgʻin tus oldi. Jumladan “Xamsa”dagi dostonlar nashrga tayyorlashga kirishilib, 1939-1940 yillar mobaynida “Xayratul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, hamda “Saddi Iskandariy” dostonlari ayrim holda bosilib chiqdi.

Bulardan birinchi doston sharh, izoh va lugʻatlar bilan, qolganlari esa doston sheʼrlarining nasriy ifodasi bilan kitobxonga taqdim etildi.

“Xamsa”dagi dostonlar 1948 yilda (“Xayratul abror”dan boshqasi) Navoiy “Tanlangan asrlar”i seriyasida ikkinchi marta nashr qilingan.

Dostonlarning bu nashriga nasriy ifoda berilmagan, lekin har birining oxiriga izoh va lugʻat ilova qilingan.

Oʻzbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti 1957 yildan boshlab dostonlarning nasriy ifodali nashrini qayta bosishga kirishdi. Bu nashrlarning hammasi ommaviy nashrlar boʻlgani uchun dostonlarga bevosita aloqasi boʻlmagan boblar qisqartirilgan edi. Bu yerda atoqli yozuvchi marxum Sadridin Ayniyni “Xamsa” dostoni ustidagi qimmatli ilmiy ishini alohida qayt etish kerak. S. Ayniy “Xamsa” dostonlarini biroz qisqartirib, qisqargan joylarini nasriy yoʻl bilan badiiy ifodasini berdi. Asarning koʻp sahifalarini ilmiy izohlar bilan bezatdi. Shu bilan muhtasar “Xamsa”ni ommaga manzur qildi-bu muhtasar “Xamsa” ikki bor (1940-1947) nashr etildi.

Dostonlarni bir-biridan ajratmasdan “Xamsa”lik holatini saqlash ishiga avtorning hayot chogʻidan boshlab, qattiq rioya qilib kelishgan. Nusxalarinin qoʻlda koʻchirish uzoq vaqt va zoʻr chidam talab etishiga qaramay, kotiblar va koʻchirish tashabbuskorlari har vaqt va hamma joyda, shoirning talabiga amal qilib, “Xamsa”ning

¹ Oʻz SSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar fondi, inv. № 5018.

² Leningradda Салтиков-Шчедрин nomidagi xalq kutubxonasi, inv. № 560.

³ Shular jumlasidan ; Oʻz FA Sharqshunoslik institutidagi XVI asr qoʻlyozmasi, inv, № 7554.

⁴ Xorazm xonligi toshbosmaxonasi, Xiva, 1880, kotibi Muhammad Yusuf binni Berdimurod soʻfi Xorazmiy.

⁵ Har ikkala nusxa Toshkentda 1904 yili O. A. Поупев toshbosmaxonasida bosilgan, kotibi Shohmurod va Mannof qori.

yaxlitligini saqlashga, uni kitobxonga bir butun holda yetkazishga harakat qildilar. Buni biz vatanimiz va chet ellardagi kutubxona va muzeylarda saqlanayotgan Navoiy asarlari qo'lyozma nusxalarining ro'yhatlari, kataloglari orqali bilishimiz mumkin.

Alisher Navoiy "Xamsa"ni butunisicha bir asar deb qaradi. Shu boisdan kiritik tekstlarnig asosi bo'lgan Abduljamil kotib va Sultonali Mashhadiy nusxalaridan ham XVI asrning yana bir nodir nusxasidan to'la foydalanishga harakat qilindi.

Bu ish ommaviy nashr bo'lmagani hamda qo'limizda ayrim lug'atlar mavjudligi sababli kitob oxiriga maxsus lug'at ilova qilinmadi. Kitobning hajmi ham bu ishga imkon bermas edi.

Inqilobgacha bo'lgan o'zbek klassik adabiyoti asarlarida o'zining traditsiyon hususiyatlaridan kelib chiqib, imloda bir qadar ayrimroq prinsip saqlash kerak. Lekin bu hildagi prinsip hali ishlanmaganligidan o'ziga xos to'la birlikni saqlash qiyin bo'ldi.

Ulug' shoir Alisher Navoiyni besh yuz yillik uzoq bir davr bizdan ajratib turishiga qaramay, u hozirgi kunimizda ham biz bilan yashamoqda, uning yaratgan "Besh xazina"sidan sochilgan durru gavharlar- quyma satirlar ham, uning afsonaviy qahramonlari ham yashamoqda. Biz ham bu inju donalarini keragicha terib olganimiz yo'q.

Biz Navoiy ijodini ko'pdan buyon o'rganmoqdamiz, lekin bu ishla hali oz, yetarli emas. Ilmiy tekshirish ishini voyaga yetkazmoq uchun tekshiruvchi ihtiyorida to'liq matn bo'lishi shart. Shuning uchun ham "Xamsa"ning bu mukammal nashri navoiyshunoslikning bundan keying barq urib yanada rivoj topshida hizmat qiladi.

Biz Navoiyning toshbosma usulida nashr etilgan asarlari ustida so'z yuritishdan oldin O'zbekistonda ana shunday matbaalarning paydo bo'lishi haqida qisqacha to'htaymiz.

Yevropada allaqachon ma'lum bo'lgan matbaachilik bizning o'lkamizda XIX asrgacha ya'ni O'rta Osiyo yerlari Rassiyaga qo'shib olinishigacha bo'magan edi. Buning sabablari o'sha davrdagi mavjud ijtimoiy-madaniy hayotdagi nisbatan qoloqlik, texnik imkoniyatlarning yetishmasligi bilan izohlanadi. O'rta Osiyoning XXasr boshlarida mahalliy xalqning madaniy hayotida muhim voqealar sodir bo'la boshladi. Ana shunday yirik voqealardan biri Turkistonda tipo-litografik korxonalarining ochilishi va birinchi marta bosma kitoblarning nashr etila boshlanishidir.

O'rta Osiyoning yirik iqtisodiy-ma'muriy va madaniy markazi bo'lgan Toshkentda birin-ketin qator matbaalar vujudga kela boshladi. Dastlabki bosmaxona 1868 yilda tashkil qilindi. 1870 yildan boshlab mazkur batbaada ruscha va o'zbekcha gazetalar chop etila boshlaydi va ikki tilda kitoblar nashr qilishga kirishiladi.

Litografiya usulidagi dastlabki matbaa Xivada Muhammad Rahimxon II saroyida yuzaga keldi. Bu matbaa V. V. Bartoldning yozishicha⁶ 1874 yili tashkil topgan. Biroq unda dastlab qanday kitoblar nashr etiganligi noma'lum. E. K. Berger va G.N. Chabrovlar Turkiston matbaasi tarixi haqidagi o'z maqolalarida qiziqarli ma'lumot va faktlar keltiradilar hamda Xiva matbaasida dastlab 1880 yilda Navoiyning "Xamsa"sini nashr etganligini qayd qiladilar⁷.

Toshkentdagi yirik matbaalardan yana biri- O. A. Pertev matbaasi 1888 yilda tashkil topgan⁸. Uning chiqargan kitoblari ancha sifatli bo'lib, qog'oz va muqovalariga alohida e'tibor berilgan. Masalan, "Xamsa"ning "1904 va 1905 yillardagi nashrlarida buning guvohi bo'lish mumkin. Shuningdek Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari fondida Navoiy asarlarining 70 dan ortiq nashri borligini aniqlangan. Shulardan dastlabkisi Alisher Navoiyning "Xamsa"si bo'lib, u Xivada 1879-80 yillarda Muhammad Raximxon II ning farmoni bilan Pahlavon Mirzaboshi Komil Xorazmiy tomonidan nashr etilgan.

O. A. Portev matbaasida "Xamsa" ikki marta, masalan, 1904 va 1905 yillarda chop etilgan bo'lsa, "Xamsa"ning 1879-80, 1904 va 1905 yilladagi nashridan boshqa yana bir nashri mavjud, lekin u asarning nasrga aylantirilgan nashridir. "Nasri xasmsai benazir" deb atalgan bu asar 1908 yilda G'. H. Orifjonov matbaasida Mirmahmud ibn shoh Yunus ihtimomi bilan chiqqan. A. A. Semyonov o'zining yuqoridagi katalogida mazkur asarning tavsifini berib, uning chiqqan vaqtini 1900 yil deb tahmin qiladi⁹.

Asarning bu nashri ancha qisqartirilgan holda proza yo'li bilan yozilgan. Uning tuzilish tartibi ham odatdagidek emas, avval "Saddi Iskandariy", so'ng "Sab'ai sayyor", keyin "Layli va Majnun" ham "Farhod va Shirin" dostonlari beriladi. "Xayrat ul-abror" dostoni esa umuman yo'q.

⁶ В.В. Бартольд, История культурной жизни Туркестана, Сочинения, т. II, I, М., 1963, стр. 415

⁷ Е.К.Бетгер, Из истории книжного дела в Узбекистане, 1951. № 2; Е.К.Бетгер, «Правда Востока», 1945, № 145; Г.Н. Чабров, Первые литографированные издания произведений Алишера Навои в Средней Азии, «Звезда Востока», 1948, № 3.

⁸ "Turkistonviloyatiningazetasi" 1908, 82-son.

⁹ А. А. Семёнов, материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нём, Ташкент, 1940. 10- стр.

Navoiyning “Xamsa”si faqat yahlit holdagina nasrga ko’chirilgan emas. Uning tarkibidagi ayrim dostonlar ham alohida olinib nasrga aylantirilgan. Masalan, “Kitobi Layli Majnun” (1910), “Farhod va Shirin bo tasviri turkiy” (1912) hikoyalari shular jumlasidandir.

“Nasri xamsai benazir”kim tomonidan nasrga ko’chirilganligi noma’lum, ammo “Kitobi Layli Majnun” hamda “Farhod va Shirin bo tasviri turkiy”lar XIX asrda xorazmlik adib Umar Boqiy tomonidan nasriy hikoyaga aylantirilgan.

Ma’lumki, Navoiy poeziyasining tili nihoyatda boy. U o’zining yuksak badiiyligi va serqirraligi bilan harakterlanadi. Ammo davrlar o’tishi bilan o’zbek adabiy tili soddalashib, Navoiy zamonasidagiga qaraganda birmuncha xalqqa yaqinlashdi. Navoiy tili leksikasida arab, fors-tojik so’zlari borligi kengroq ommaning tushunishini biroz qiyinlashtiradigan bo’ldi. Shuning uchun ham Umar Boqiy singari adabiyot muhlislari Navoiy “Xamsa”si va undagi ayrim dostonlarni nasrga aylantirib shoir ijodini ommalashtirishga urindilar. Nisbatan sodda va tushunarli tilda yozilgan mazkur asarlar o’quvchilar tomonidan yaxshi kutib olingan bo’lsa kerakki, shoirning bunday asarlari noshirlar tomonidan bir necha bor nashr qilingan.

Ma’lumki, toshbosma usulida nashr qilinadigan kitoblar dastavval xattot – kotiblar tomonidan ko’chirilardi. Demak, Navoiy asarlarining O’rta Osiyo matbaalarida bosilishi hamda ularning xalq orasida ommalashida kotiblarning tas’iri katta bo’lgan, shoir asarlarini ko’chirishda necha o’nlab xattot-kotiblar ishtirok etganlar. Shomurod ibn Shone’mat, Abdumannon hoji bin Abdulvahob, Mulla O’tab, xorazmlik shoir Komil va boshqalar shular jumlasidandir. Nashr qilingan Navoiy asarlarining savodliligi ana shu xattot yoki kotiblarning savodxonligiga ham bog’liq bo’lgan.

Binobarin, toshbosma usulida chiqqan barcha asarlar, shuningdek, Navoiy merosi matnining buzulgan yoki buzilmaganligi masalasi nashrlarni maxsus qiyosiy o’rganib chiqish natijasidagina hal etilishi mumkin.

Qisqasi, yuqorida qisqacha xarakterlab o’tkanimiz matbaalarning deyarli hammasi, ularning o’z shart-sharoitlari va imkoniyatlarining qay darajada bo’lganligidan qat’iy nazar, Navoiy asarlarini toshbosma usulida chiqarishda muhim ro’l o’ynaganliklari tabiiydir.